

**“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi”
mas’uliyati cheklangan jamiyatি
Yagona ta’sischisining
2024-yil “2”-oktabrdagi
38-son qarori bilan
“T A S D I Q L A N G A N”**

**Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentining faoliyati
shartlari to‘g‘risidagi shartnoma
SHAKLI**

Toshkent sh.

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MCHJ keyingi o‘rinlarda “Direksiya” nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor Ibragimov F.Z., bir tomonidan, va yuridik shaxs, keyingi o‘rinlarda “Rezident” deb ataluvchi ikkinchi tomonidan, birgalikda, “Tomonlar” deb ataluvchilar ushbu ommaviy-oferta ko‘rinishidagi Shartnomani (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

PREAMBULA

Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldaggi 589-son qarori bilan tasdiqlangan “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom” (keyingi o‘rinlarda – Nizom)ga muvofiq tuzilgan.

Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasi 2-bandiga binoan Direksiyaning rasmiy ommaviy ofertasi bo‘lib, unda ofertaning barcha muhim shartlari mavjuddir.

Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasiga muvofiq, yuridik shaxsga Nizomda belgilangan talablarga muvofiq Texnopark rezidenti maqomi taqdim etilganidan keyin kuchga kiradi.

1- bob.Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi terminlar va tushunchalar ishlatalidi:

Biznes-reja – kompaniya, tovar, uni ishlab chiqarish, ko‘rsatiladigan xizmatlar, mahsulot sotiladigan potensial bozorlar, marketing strategiyasi, operatsiyalarni amalga oshirishni tashkil etish va ularning samaradorligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan reja, kompaniyaning harakatlari, biznes-operatsiyalarni amalga oshirish dasturi;

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o‘rinlarda – Texnopark) – O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida ekterritoriallik prinsipi asosida axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning maksimal darajada qulay sharoitlarini yaratish uchun respublikaning butun hududida Texnopark rezidentlarini joylashtirgan holda ishlaydigan tashkilot;

Ekspert kengashi – Direksiya huzurida rezident maqomini olish uchun ariza bergen yuridik shaxslar va rezidentlarning biznes-rejalarini tahlil qilish maqsadida vazirliklar va idoralar, ilmiy muassasalar, oliy ta’lim muassasalari malakali mutaxassislari va boshqa mutaxassislardan tashkil etiladigan organ;

Farmon – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son Farmoni;

Rezidentlarning yagona reyestri – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldaggi 589-son qarori bilan tasdiqlangan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom)

muvofiq Texnoparkda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar ro'yxati mavjud bo'lган ochiq va umumfoydalaniladigan axborot resursi;

Texnoparkning rezidenti – belgilangan tartibda Texnoparkda ro'yxatdan o'tkazilgan va rezidentlarning Yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

Veb-portal – Texnopark rezidenti maqomini olish uchun yuridik shaxslardan hujjatlar qabul qilish, Direksiya va uning rezidentlari o'rtasida o'zaro hamkorlik qilish, shu jumladan, ulardan hisobotlar, xulosalar, biznes-rejalar va boshqalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan Direksiyaning rasmiy veb-saytidagi bo'limi;

Virtual ofis – Internet jahon axborot tarmog'ida joylashgan yuridik (pochta) manzili orqali (jismoniy joylashmagan holda) xodimlar o'z ishlarini bajarishlari, kompaniya bilan kontragentlar (yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat organlari va boshqalar) bilan muloqot qilish imkonini beruvchi joy.

2-bob. Shartnoma predmeti

2.1. Ushbu Shartnoma quyidagilarni belgilaydi:

- Rezident faoliyatining shartlari, uning Texnopark rezidenti sifatidagi huquq va majburiyatlari;
- Direksiyaning huquq va majburiyatlari;
- ushbu Shartnoma doirasida Tomonlarning o'zaro munosabatlari.

3-bob. Rezidentning huquqlari

3.1. Rezident quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. O'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida amalga oshirish;

3.1.2. Nizomga muvofiq tasdiqlangan Texnopark rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatiga (keyingi o'rinnarda – Ro'yxat) muvofiq o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilash;

3.1.3. Ro'yxatga binoan faoliyat turlarini amalga oshirishda, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek, roylati, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan va kursdagi ijobiy farqdan olingan daromadlarda soliq imtiyozlaridan foydalanish;

3.1.4. "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining rezidenti" yoki "IT-parkning rezidenti" belgisidan foydalanish sharti bilan Texnoparkning savdo belgisidan yoki xizmat ko'rsatish belgisidan foydalanish, shu jumladan, uni firma blankalariga, firma peshlavhalariga (viveska), tashrif qog'ozlariga, reklama materiallariga qo'yish;

3.1.5. Texnopark rezidenti sifatida faoliyat doirasida amalga oshiriladigan biznes-rejaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha iqtisodiy asoslangan takliflarni veb-portal orqali Direksiyaga ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

3.1.6. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushumlar doirasida xorijiy ta'sischilar (ishtirokchilar) va chet ellik mutaxassislariga dividendlar va ish haqi to'lovlarini chet el valyutasida xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish orqali amalga oshirish;

3.1.7. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi tasdiqnomalarini olmasdan turib chet ellik mutaxassislarini jalb etish;

3.1.8. Direksiya bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq virtual ofis xizmatidan foydalangan holda faoliyatni amalga oshirish;

3.1.9. Eksport qilingan tovar (xizmat)larning hajmi joriy hisobot kalendar yilida 10 million AQSH dollaridan oshganda 25 foizga, 20 million AQSH dollaridan oshganda 50 foizgacha Direksiyaga har oy o'tkaziladigan ajratmalar miqdorini pasaytirish;

3.1.10. Eksport kontraktisiz Internet jahon axborot tarmog'идаги onlayn do'konlar orqali xorijiy valyutaga ishlar va xizmatlar eksportini amalga oshirish;

3.1.11. Texnopark rezidentlari eksport qilinadigan xizmatlar uchun o'zlariga qulay bo'lган to'lash hamda hisob-kitob qilish va shakllarini qo'llash;

3.1.12. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish;

3.1.13. Ushbu Shartnomaning 8.2-bandida belgilangan tartibda Texnopark rezidenti maqomidan voz kechish.

4-bob. Rezidentning majburiyatları

4.1. Texnopark rezidenti:

4.1.1. Faqat ro‘yxatdagi faoliyat turlariga asoslangan biznes-rejada ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat turlarini amalga oshirishi;

4.1.2. ushbu Shartnoma shartlariga amal qilishi;

4.1.3. Har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-sanasigacha, Direksiya tomonidan tasdiqlangan shaklga ko‘ra o‘z faoliyati to‘g‘risida, jumladan, statistik va soliq hisoboti nusxalarini Direksiyaning veb-portali orqali taqdim etishi;

4.1.4. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 20-kunidan kechikmay Direksiyaning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag‘iga jami daromadning bir foizi miqdorida ajratma o‘tkazish.

Bunda, jami daromadi kalendor yil davomida 100 milliard so‘m va undan yuqori bo‘lgan hamda chorak yakuni bo‘yicha xizmatlarni (tovarlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlari jami daromadning 2024-yil 1-oktabrdan boshlab 10-foizi, 2026-yil 1-yanvardan boshlab 20 foizi, 2027-yil 1-yanvardan boshlab 35 foizini tashkil etmagan taqdirda ikki foiz miqdorida ajratma o‘tkazishi;

4.1.5. Har yili, hisobot yildan keyingi yilning 1-iyuligacha Direksiya tomonidan tasdiqlanadigan shaklga ko‘ra moliya-xo‘jalik faoliyati majburiy auditini o‘tkazish va maxsus savolni tekshirish natijalari bo‘yicha auditorlik hisoboti hamda auditorlik xulosasining nusxasini veb-portal orqali Direksiyaga yuborishi shart. Bunda maxsus savolni tekshirish natijalari bo‘yicha auditorlik hisobotida yuridik shaxsning haqiqatda amalga oshirgan faoliyati, ro‘yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi masalalari hamda moliyaviy yil davomida amalga oshirilgan faoliyat turlari va ularni amalga oshirish natijasida olingan jami daromaddagi ulushi, eksport hajmi va tarkibi hisobga olinishi shart. Auditorlik xulosasida esa, olingan tushum va yuridik shaxsning haqiqatda amalga oshirgan faoliyati ro‘yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiqligi ko‘rsatilishi;

4.1.6. Har yili hisobot yildan keyingi yilning 15-sanasigacha, Direksiyaga axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quv kurslari haqida ma’lumot berishi hamda o‘quv kurslari tashkil etilgan taqdirda ushbu kurslar doirasida o‘quv dasturini kelishishi;

4.1.7. Taqdim etilgan biznes-rejada ko‘rsatib o‘tilmagan yangi faoliyat turlarini Direksiya tomonidan yangi (qo‘srimcha) biznes-reja tasdiqlangandan keyin amalga oshirishi;

4.1.8. O‘zgartirilgan shaklda qayta tashkil etilganda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgarganda, rezidentning ta’sis hujjatlariga kiritilgan o‘zgartishlar va (yoki) qo‘srimchalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda, rezidentning tashkilot nomi, shuningdek, uning yuridik va/yoki haqiqiy manzili, bank rekvizitlari o‘zgargan kunidan boshlab, o‘n ish kuni ichida, bu haqda, Rezidentlarning yagona reyestriga va boshqa hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, Texnopark rezidentining faoliyati shartlari bo‘yicha qo‘srimcha shartnoma tuzish uchun, buyurtma xatlar orqali yoki qabul qiluvchiga, xabarnomani topshirilganligini aniqlashga imkon beradigan boshqa mavjud aloqa vositalari orqali, yozma bildirishnomasi yuborish yordamida, tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarini taqdim etish bilan Direksiyani xabardor qilishi;

4.1.9. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarga taalluqli buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa boshlang‘ich hujjatlarini avtomatlashtirish yo‘nalishlarida ishlab chiqiladigan avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalarini (axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlari) majburiy ravishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlashi;

4.1.10. Farmonga muvofiq, bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlaridan tashqari) ozod qilingan, faqat o‘z ehtiyojlari uchun O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalarini, butlovchi qismlarni, ehtiyoq qismlarni, detallarni, uzellarni, texnologik hujjatlarni, dasturiy ta’mnotni, shuningdek boshqa tovarlarni ishlatsishi shart.

4.1.11 Axborot texnologiyalari sohasida ingliz tilini o‘qitish xizmatidan tushgan mablag‘lar hajmi axborot texnologiyalari sohasidagi ta’limdan yillik umumiylar daromadning 40 foizidan oshmasligini ta’minlashi;

4.2. Agar hisobot oyida ushbu Shartnomaning 4.1.4-bandida ko‘rsatilgan daromad mavjud bo‘lmasa, Rezident hisobot davrida keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay, hisobot davrida daromad mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotni Direksiyaga taqdim etadi. Bunda, rezident tomonidan 4.1.4-bandida nazarda tutilgan ajratmalarni to‘lamaslik ketma-ket 6 oydan oshmasligi kerak, axborot

texnologiyalari sohasidagi loyihalarni venchur moliyalashtirish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan rezidentlar mustasno.

4.3. Rezident Direksiyaga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 29-moddasiga muvofiq o‘zining soliq hisobotlari nusxalarini soliq organlaridan olish huquqini beradi.

4.4. Rezident O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan boshqa majburiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

5-bob. Direksiyaning huquqlari

5.1. Direksiya quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Rezidentdan uning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotni, shu jumladan statistika va soliq hisobotlarining nusxalarini har oy va chorak yakuniga ko‘ra olish;

5.1.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Rezident tomonidan imtiyozlarni qo‘llash va ushbu Shartnomada shartlarini bajarish bo‘yicha rezident tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni tahlil qilish;

5.1.3. Rezidentning mahsulotlari, dasturlari, boshqa ishlanmalari va yutuqlari hamda Rezident to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rgazmalarda, seminarlarda va rasmiy uchrashuvlarda targ‘ib qilish;

5.1.4. Rezidentning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish, Rezident tomonidan ishlab chiqarilgan axborot texnologiyalari mahsulotlarini xalqaro yarmarkalarda, ko‘rgazmalarda namoyish etish, shuningdek Rezidentning respublika va xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan xalqaro seminar, konferensiya va boshqa tadbirdorda ishtirokini tashkil etish;

5.1.5. Rezidentning faoliyati to‘g‘risidagi axborot va tahliliy materiallarni o‘z vakolatlari doirasida tayyorlash va nashr etish;

5.1.6. Rezidentning yangi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni tashkil etish;

5.1.7. Ushbu Shartnomaning 4.1.4-bandini bilan belgilangan ajratmalar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun neustoyka shaklida, rezidentga to‘lovni kechiktirishning har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foiz miqdoridagi, lekin to‘lanishi kerak bo‘lgan summaning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya hisoblanadi;

5.1.8. Rezidentdan soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarga taalluqli buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa boshlang‘ich hujjatlarini avtomatlashtirish yo‘nalishlarida ishlab chiqiladigan avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalarini (axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlari) majburiy ravishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinganligi to‘g‘risida ma’lumot so‘rash;

5.1.9. Soliq organlaridan Rezidentning soliq hisobotlarini olish;

5.1.10. O‘z vakolati doirasida alohida tuzilgan shartnomalar asosida Rezidentga qo‘srimcha xizmatlar ko‘rsatish;

5.2. Direksiya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

6-bob. Direksiyaning majburiyatları

6.1. Ushbu Shartnomada tuzilgandan keyin uch ish kuni mobaynida Direksiya quyidagi majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi:

6.1.1. Rezidentlarning Yagona reyestriga Rezidentni ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida, uning nomi, Ro‘yxatga muvofiq amalga oshiradigan faoliyat turi, pochta va elektron manzili ko‘rsatilgan holda, tegishli yozuvni kiritish;

6.1.2. Texnopark rezidenti sifatida ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida guvohnoma berish;

6.1.3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga va Davlat bojxonasi qo‘mitasiga, yuridik shaxsga xizmat ko‘rsatadigan tijorat bankiga yuridik shaxs Texnopark rezidenti sifatida ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida rasmiy bildirishnomasi yuborish.

6.2. Direksiya Rezident tomonidan o‘zgartirilgan shaklda qayta tashkil etilganligi yoki nomi o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani olgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida quyidagilarni bajarishi shart:

6.2.1. Rezidentlarning yagona reyestriga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

6.2.2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga va Davlat bojxonasi qo‘mitasiga, yuridik shaxsga xizmat ko‘rsatadigan tijorat bankiga yuridik shaxs Texnopark rezidenti sifatida ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida rasmiy bildirishnomasi yuborish.

7-bob. Rezidentning imtiyozlari va preferensiyalari

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son Farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi:

a) Texnopark rezidentlari:

barcha turdagи soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni, shuningdek ijtimoiy soliqni to‘lashdan ozod etildi;

belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, o‘z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan uskunalar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta’milot vositalari uchun bojxona to‘lovlari to‘lashdan (bojxona yig‘imlaridan tashqari) ozod etildi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushumlar doirasida xorijiy ta’sischilar (ishtirokchilar) va chet ellik mutaxassislariga dividendlar va ish haqi to‘lovlari chet el valyutasida xalqaro to‘lov kartalariga o‘tkazish orqali amalga oshirish;

virtual ofis xizmatidan foydalangan holda faoliyatni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi tasdiqnomalarini olmasdan turib chet ellik mutaxassislarni jalb etish;

eksport kontraktisiz onlayn do‘konlar orqali eksportni amalga oshirish;

eksport qilinadigan xizmatlar uchun to‘lov va hisob-kitoblarning qulay shartlari va shakllaridan foydalanish;

eksport qilingan tovar(xizmat)larning bir yillik hajmi 10 million AQSH dollaridan oshganda 25 foizga, 20 million AQSH dollaridan oshganda 50 foizgacha Direksiyaga har oy o‘tkaziladigan ajratmalar miqdorini pasaytirish;

b) Texnopark rezidentlari bilan mehnat shartnomalari bo‘yicha xodimlar tomonidan olingan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar:

7,5 foiz miqdordagi qat‘iy belgilangan stavka bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortiladi;

soliq solish maqsadida belgilanadigan jismoniy shaxslarning umumiyligi yillik daromadlari hajmiga kiritilmaydi;

d) 2025-yil 1-yanvarga qadar Texnopark rezidentlarining ta’sischilar (ishtirokchilari) – O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari singari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining va yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ining besh foiz stavkasi tatbiq etildi.

Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalardan qonuniy foydalanish majburiyati soliq to‘lovchiga yuklatiladi.

7.2. Ushbu Shartnomaning 7.1-bandida nazarda tutilgan imtiyozlar:

“a” kichik bandining ikkinchi va to‘rtinchi xatboshilari va “b” va “d” kichik bandlaridagi soliqlar va majburiy ajratmalar bo‘yicha - yuridik shaxs rezidentlarning Yagona reyestriga kiritilgan oydan keyingi oyning 1-kunidan;

bojxona to‘lovlari bo‘yicha – bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar qo‘llagan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan (import qilinadigan) tovarlar ro‘yxatining kompleks ekspertizasi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasining ijobjiy xulosasi olingan kundan boshlab qo‘llaniladi.

“a” kichik bandining to‘qqizinchi xatboshisida ko‘rsatilgan oylik ajratmalar bo‘yicha - ushbu Shartnomaning 4.1.4-bandida ko‘rsatilgan Direksiyaga o‘tkaziladigan jami daromadning bir foizi miqdoridagi oylik ajratmalar stavkasini pasaytirish joriy hisobot kalendar yilida amalga oshirilgan eksportning umumiyligi hajmidan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi.

boshqa imtiyoz va preferensiyalar bo‘yicha – rezidentlarning Yagona reyestriga kiritilgan kundan boshlab qo‘llaniladi.

8-bob. Rezident maqomidan mahrum qilish tartibi

8.1. Quyidagilar Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilishning asosi hisoblanadi:

8.1.1. Texnopark rezidenti amaldagi faoliyatining Ro'yxatda belgilangan faoliyat turlariga muvofiq emasligi;

8.1.2 Direksiya bilan tuzilgan Texnopark rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasligi;

8.1.3. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarga taalluqli buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa boshlang'ich hujjatlarini avtomatlashtirish yo'nalishlarida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan hisobga olish o'lchov vositalari (axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlari) soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinmagan holda qo'llanilganda;

8.1.4. Texnopark rezidentining nochor (bankrot) deb e'tirof etilishi;

8.1.5. Texnopark rezidenti rezident maqomidan o'z xohishi bilan voz kechishi;

8.1.6. O'z faoliyati, soliq va statistika hisobotlari, biznes-reja, shuningdek, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi yoki ularda ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilganligi;

8.1.7. Ushbu Sharhnomaning 4.1.4-bandida belgilangan ajratmalarning to'lanmaganligi;

8.1.8. Yuridik shaxs – Texnopark rezidenti qayta tashkil etilgan taqdirda, uning o'zgartirilishi bundan mustano;

8.1.9. Rezident tomonidan soliq va bojxona imtiyozlaridan qonunga xilof ravishda foydalanganda yoki shu bilan bog'liq boshqa huquqbazarliklar to'g'risida vakolatli davlat organlari tomonidan xabarnoma (taqdimnoma) kiritilgan taqdirda;

8.1.10. Axborot texnologiyalari sohasida ingliz tilini o'qitish xizmatidan tushgan mablag'lar hajmi axborot texnologiyalari sohasidagi ta'limdan yillik umumiy daromadning 40 foizidan oshganda;

8.1.11. Rezident tomonidan ushbu Sharhnomada belgilangan shartlar buzilganda;

8.1.12. O'zbekiston Respubliksi qonunchiligi, Nizomda, Direksiyaning qarorlarida va ushbu Sharhnomada nazarda tutilgan boshqa asoslar.

8.1.13. Venchur moliyalashtirish va akseleratsiya dasturlarini amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanayotgan Texnopark rezidentlari Texnopark va uning filiallaridan ro'yxatdan o'tgan yuridik manzilini boshqa manzilga o'zgartirganda;

8.2. Texnopark rezidenti rezidentlik maqomidan ixtiyoriy ravishda voz kechish huquqiga ega bo'lib, bu haqda yozma ariza bilan Direksiya manziliga murojaat qilishi lozim. Direksiya ariza kelib tushgan kundan boshlab, unda ko'rsatilgan sanaga muvofiq, 10 ish kuni ichida rezidentlik maqomidan mahrum qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar arizada Texnopark rezidentlik maqomidan voz kechish sanasi aniq ko'rsatilmagan taqdirda, yuridik shaxs arizasi Direksiyaga kelib tushgan sana rezidentlik maqomidan ixtiyoriy ravishda voz kechish sanasi sifatida qabul qilinadi.

8.3. Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilish Direksiyaning qaroriga asosan amalga oshiriladi va agar qarorda boshqa sana ko'rsatilmagan bo'lsa, u qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.4. Direksiya Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilingani to'g'risidagi yozuvni Rezidentlarning yagona reyestriga kiritgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida:

8.4.1. Yuridik shaxs joylashgan joydagи davlat soliq va bojxona xizmati organlarini;

8.4.2. Yuridik shaxsga xizmat ko'rsatadigan tijorat bankini;

8.4.3. Direksiya qaroridan ko'chirma bilan yuridik shaxsni xabardor qiladi.

8.5. Direksiyaning Texnopark rezidenti maqomidan mahrum qilish to'g'risidagi qarori kuchga kirgan kundan boshlab, yuridik shaxs Farmonga muvofiq unga berilgan imtiyozlardan foydalanishni to'xtatishi kerak. Bunday holda, yuridik shaxs quyidagi imtiyozlardan:

8.5.1. Soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha – Texnopark rezidenti maqomi bekor qilingan oydan keyingi oyning 1-kunidan;

8.5.2. Bojxona to'lovlari va boshqa imtiyozlar va preferensiyalar bo'yicha – rezident maqomi bekor qilingan kundan boshlab foydalanish huquqiga ega emas.

9-bob. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Texnopark rezidenti maqomi bekor qilinganidan keyin Farmonda nazarda tutilgan imtiyozlardan qonunchilikka xilof ravishda foydalanganlik uchun javobgarlikni, Texnopark rezidenti maqomini yo‘qotishiga sabab bo‘lgan asoslardan qat’iy nazar, mazkur yuridik shaxs o‘z zimmasiga oladi.

9.2. Rezident O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq o‘z xodimlarining ish haqi ko‘rinishidagi daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxsnинг daromad solig‘ini hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

9.3. Rezident Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda, Rezident tomonidan foydalanilgan imtiyozlar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ularni to‘lash sharti bilan majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi, bunda Rezident tomonidan Direksiyaga to‘langan ajratmalar qayta hisoblanmaydi.

9.4. Rezident tomonidan oylik ajratmalarni amalga oshirilishida jami daromadning haqiqiy miqdori yashirilganligi va natijada, ushbu Shartnomaning 4.1.4-bandida nazarda tutilgan ajratmalar to‘liq hajmda to‘lanmaganligi uchun, Rezident aniqlangan farqni aniqlangan kundan boshlab uch bank kuni ichida to‘liq hisoblash va to‘lab berish, shuningdek, Direksiyaning talabiga binoan hisobot davri davomida rezident tomonidan to‘lanishi kerak bo‘lgan ajratma summasining 10% i miqdorida jarima to‘lash majburiyatini oladi.

9.5. Jarima sanksiyalarini to‘lash aybdor tomonni ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

9.6. Ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq javobgar bo‘ladilar.

9.7. Tomonlar Shartnoma bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarayotganida, korrupsiya o‘id huquqbarliklarni sodir etmaslik majburiyatini oladi, ya’ni - pora bermaslik (pora berishga positachilik qilmaslik), o‘z vakolatlarini suiste’mol qilmaslik, pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan mol-mulk ko‘rinishidagi imtiyozlardan noqonuniy foydalanish maqsadida tijorat poraxo‘rlik yoki o‘z xizmat mavqeidan qonuniy manfaatlariga zid ravishda boshqa, qonunlarga xilof bo‘lgan holatlardan foydalanishda ishtirok etmaslik.

9.8. Tomonlar korrupsiya o‘id huquqbarliklarni sodir etishga undash maqsadida u bilan bog‘langan har qanday shaxslar to‘g‘risida shuningdek, faoliyat davomida korrupsiya o‘id huquqbarliklarni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotgani yoki amalga oshirilayotganidan xabardor bo‘lsa, a’loqa raqami +998 71 209-11-99 yoki 1345 (koll-markaz) orqali Direksiyaning “Komplayens-nazorat va rezidentlar bilan huquqiy hamkorlik o‘rnatish xizmati”ga yoki huquqni muxofaza qiluvchi organlarini xabardor qilishi kerak.

10-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

10.1. Ushbu Shartnomani bajarish bo‘yicha kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi mumkin.

10.2. Agar kelishuvga erishilmasa, ish ko‘rib chiqish uchun Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yuboriladi.

10.3. Sudda da’vo ochishdan avval da’vo qiluvchi tomon ikkinchi tomonga ogohlantiruv xati yo‘llashi shart. Oghlanantiruv xatini ko‘rib chiqish muddati 15 ish kuni qilib belgilanadi.

11-bob. Fors-major

11.1. O‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun, agar bajarmaslik, sel toshqinlari, yong‘inlar, zilzilalar, harbiy harakatlar, davlat organlari tomonidan taqiqlovchi dalolatnomalarini chiqarish va shu kabi bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, tomonlarning hech biri javobgar hisoblanmaydi.

11.2. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qiladigan, fors-major holatlari haqida ular yuzaga kelgan va tugagan kundan boshlab o‘n kun ichida bir-birlarini xabardor qilishga majburdirlar. Bunday holatda tomonlardan hech biri zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.

11.3. Fors-major holatlari kelib chiqqanini ma’lum qiluvchi tomon ularni tasdiqlash uchun vakolatli davlat organining hujjatini taqdim etishi shart.

12-bob. Shartnomaning amal qilish muddati.

12.1. Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367- moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Nizomning 10-bandiga muvofiq Texnopark rezidenti maqomini olish uchun veb-portal orqali ariza taqdim etish, ushbu Shartnoma shartlari bilan roziliqi (aksept) hisoblanadi.

12.2 Ushbu Shartnoma Texnopark rezidenti rezidentlarining Yagona reyestriga kiritilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o‘z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

12.3. Rezident o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilganida, uning huquqiy holati qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab, barcha huquqlari va ilgari qabul qilingan majburiyatlari saqlanib qolgan holda o‘tadi.

13-bob. Yakuniy shartlar

13.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.

13.2. Rezident tomonidan ushbu Shartnomaning aksepti uning Farmon, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining texnologik parkini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 10-yanvardagi 17-sonli qarori, Direksiyaning Nizomi va qarorlari bilan tanishganligini anglatadi.

13.3. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarish bilan bog‘liq har qanday ma’lumotlarni mahfiy deb biladi va uni boshqa tomonning yozma rozilgisiz uchinchi tomonlarga bermaslik majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

13.4. Maxfiy ma’lumotlarni, shu jumladan tomonlarning tijorat sirlarini oshkor qilganlik uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilanadi.

Direksiyaning bank rekvizitlari va manzili:

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari parki direksiysi” MChJ

Manzil: Toshkent sh., M.Ulug‘bek tumani, Tepamasjid 4

Bank: ATB “Aloqabank” Bosh maliyot bo‘limi

x/r: 2020 8000 0009 6604 8001

MFO: 00401

STIR: 305975326

IFUT: 63990

Tel: +99871 209-11-99